

O'QUV LUG'ATLARI TUSHUNCHASINING TASNIFIY BELGILARI

D.B.Xusanova, Termiz Davlat Universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: PhD.A.A.Eshmo'minov Termiz Davlat Universiteti

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda leksikografiyaning rivoj topib borayotgan sohalaridan biri bu o'quv lug'atchiligi sohasi hisoblanadi. O'quv lug'atlarining boshqa lug'atlardan ajralib turuvchi xususiyati shundaki, ular ta'limga bevosita bog'liq bo'lib, allaqachon ta'lim sohasining ajralmas bir qismiga aylangan. O'quv lug'atlarining asosiy vazifasi esa o'quvchilarga til ko'nikmalarini soddaroq, tushunarliroq va albatta o'quvchilar e'tiborini jalb eta oladigan tarzda ifodalashdan iboratdir.*

***Kalit so'zlar:** leksikografiya, lug'atlar, o'quv lug'atlari, leksema, tasnifiy belgilar.*

Leksikografiya sohasi bu har qanday mamlakatning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, milliy va madaniy sohalaridagi har qanday taraqqiyot va rivojlanish ushbu millat vakillariga tegishli lug'atlarda o'z aksini topadi. O'quv lug'atchiligi bugungi kunda lug'atshunoslikning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. V.V.Morkovkin umumiy lug'atlarni ikki turga ajratgan. Bular antroposentrik va lingvosentrik lug'at turlari hisoblanadi. Antroposentik lug'atlarda asosiy urg'u inson ongida tilni yoritish, undan to'g'ri va samarali samarali foydalana olishga yordam berishdir. Lingvosentrik lug'atlarda til asosiy markazda bo'lib, asosiy vazifasi ushbu tildagi faktlarni yoritish hisoblanadi¹. Hozirda o'quv lug'atlari antroposentrik xususiyatga ega bo'lgan lug'atlar tipiga kiritilmoqda. O'quv lug'atlari ta'lim sohasi uchun mo'ljallangan bo'lib, bu turdagi lug'atlar o'quvchilarga nafaqat so'z boyligini kuchaytirish,

¹ Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. – М.,1998.С. 132-133.

nutqiy yoki yozma savodxonligini oshirish balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham hizmat qiladi.

Masalan, "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratishda o'quvchilar uchun juda katta yordamchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar so'z qo'llashda aynan so'zning o'zagi qaysi ekanligini va qo'shimchalarni to'g'ri qo'shish va tilda to'g'ri qo'llay olishni o'rganishlari uchun juda muhim hisoblanadi.

Undan tashqari ushbu lug'atda asli o'zlashma bo'lgan, ammo o'zbekcha qo'shimchalar olgan, o'zak va qo'shimchalarga ajrata olish imkoniyatiga ega bo'lgan leksemalarni ham o'zida qamrab olgan: *medal-li*, *ideal-lash/tir/ish*, *aspirant-lik*.²

Hozirda jahon o'quv lug'atchiligida kompleks o'quv lug'atlari janiri mavjud. Bu turdagi lug'atlar so'zlarni faqat bir tomondan emas balki deyarli barcha qirralarini bittada aks ettirishi bilan xarakterlanadi.³ Bu turdagi o'quv lug'atining afzallik jihati shundaki o'quvchi bitta lug'atdan foydalangan holda bir vaqtning o'zida bitta leksemaning bir nechta lingvistik xususiyatlarini o'rganishi mumkin.

Yuqorida o'quv lug'atlarining o'ziga xos tavsifiy belgilarini ma'lum darajada yoritib o'tdik. Undan tashqari ham albatta o'quv lug'atlarining asosiy boshqa lug'atlardan farqlanuvchi jihatlari mavjud. Umuman lug'atlar hajm jihatdan katta, o'rta hajmli va kichik lug'atlarga bo'linadi. O'quv lug'atlari esa hajm jihatdan asosan kichik va ba'zi hollarda o'rta hajmli lug'at turlariga kiradi. Chunki bizga ma'lumki, o'quv lug'atlari ta'lim jarayonida (asosan maktab sohasida) o'quvchilarga mo'ljallangan va ularga keyinchalik akademik lug'atlarga yo'l ochib beruvchi vosita bo'la olishi muhimdir. Agar o'quv lug'atlari hajm jihatdan juda katta va murakkab bo'lsa, bu o'quvchilarni lug'atshunoslik sohasiga jalb eta olmasligi mumkin.

O'quv lug'atlari albatta ta'lim sohasiga uzviy bog'liq bo'lishi, darsliklarga albatta moslashtirilishi muhim ahamiyat kasib etadi. O'quv lug'atlari ta'lim

² Mengliyev B., Bahriddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati.-T.: O'zbekiston, 2007-7b.

³ Bahriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. Filologiya fanlar doktori (DSc)...dis.avtoref.- Samarqand 2020

jarayonida ishlatilganligi uchun ham fanlar doirasida bo'lishi, ushbu fan sohasidagi darsliklarga mos tushishi va hattoki o'quv lug'atlari o'zida ma'lum mashg'ulotlar va ushbu lug'atlarni aynan ochib beruvchi mashqlar yoki boshqotirma kabilarni o'z ichiga olishi lozim.

Ta'limiy lug'atlat nafaqat maktab balki maktabgacha talim va hatto oliy ta'lim sohasini ham o'zida qamrab oladi. Shu sababli ham o'quv lug'atlari yosh xususiyatlarni inobatga olgan holda tuzilishi zarur. Masalan, maktabgacha ta'lim sohasida tuzilgan lug'atlar albatta, sodda, aniq va bolalarni o'ziga jalb qila olish hususiyati mavjud bo'lishi muhim. Vaholanki, oliy ta'lim uchun mo'ljallangan lug'atlar esa nisbatan mukammal, aynan ma'lum sohani qamragan bo'lishi kerak.

O'quv lug'atlari o'zida eng muhim ma'lumotlarni qamrab olgan, leksemalarning ham eng zarur jihatlarini ochib berishga qaratilgan va albatta ifoda aniq, lo'nda va qisqa bo'lganligi bilan ham boshqa lug'atlardan farqlanadi. Chunki o'quv lug'atlari foydalanuvchiga qo'liga olgandayoq nima uchun xizmat qilinishi aniq bo'lishi lozim.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quv lug'atlari o'quvchilar uchun leksikagrafiyaning boshlang'ich fundamenti sifatida qo'llniladi va aynan shuning uchun ham o'quv lug'atlarining o'quvchini jalb qilish xususiyati muhimdir. O'quv lug'atlari maqsadli ravishda zaruriy visual bezaklarni ham qamrab olishi lozim. Undan tashqari o'quv lug'atlarida albatta leksikografik simvollik kam va soddaroq holda ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, leksikografiya sohasida o'quv lug'atlari ta'lim jarayoni uchun eng muhim omil hisoblanadi. Tilshunoslikda o'quv lug'atlatridan unumli foydalanish o'quvchilar uchun har tomonlama bilim saviyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bahriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. Filologiya fanlar doktori (DSc)...dis.avtoref.- Samarqand 2020

2. Mengliyev B., Bahriddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati.- T.: O'zbekiston, 2007-7b.
3. Морковкин В.В. Антропоцентрический versus лингвоцентрический подход к лексикографированию // Национальная специфика языка и ее отражение в нормативном словаре. – М.,1998.С. 132-133.